

«OILAVIY NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI TASHKIL
ETISH TAMOYIL VA YO'LLARI»

Nosirova Gulchexra Shavkatjanovna

Yangiyer Pedagogika kolleji o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy maktabgacha ta'lism tashkilotlarini tashkil etish va ular faoliyatini tashkomillashtirishning mazmuni haqida fikr yuritilgan.

Аннотация: В статье рассматривается содержание организации и организации семейного дошкольного образования.

Annotation: This article discusses the content of the organization and organization of family preschool education.

Kalit so'zlar: barkamol shaxs, intelektual salohiyatli, bolaning rivojlanishi, maktabda ta'lism olish, bolalar parvarishi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, bilim darajasi, fikrlash tezligi, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi PQ-3651-son qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha ta'lism sohasida davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi nizomga muvofiq davlat-xususiy sherikchilikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lism muassasalarini moddiy-texnik va uslubiy jihatdan ta'minlash shakli asosida tashkil etilgan oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lism muassasalari faoliyati uchun litsenziya olish talab etilmaydi, 50 nafargacha bolani tarbiyalashni nazarda tutuvchi oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lism muassasalarini moddiy-texnik va metodik jihatdan ta'minlash shaklidagi davlat-xususiy sheriklik loyihasi xususiy sherikning tashabbusi bilan, tanlov o'tkazilmay va taqdim etilgan hujjatlarni o'rganish asosida, ular bilan to'g'ridan to'g'ri muzokaralar o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lism muassasalari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lism vazirligi imzolagan davlat-xususiy sheriklik to'g'risida bitimga, boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek, ushbu Nizomga amal qiladi. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lism tashkiloti faqat davlat-xususiy sheriklikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lism tashkilotlarini moddiy-texnik va metodik jihatdan ta'minlash shakli asosida tashkil etiladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lism tashkiloti shaklidagi davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun xususiy sherik (yakka tartibdagi tadbirkor shaklida) davlat sheri giga ariza bilan murojaat qiladi.

Xususiy sherikning loyihami amalga oshirish to'g'risidagi arizasi davlat sheri giga tomonidan ariza tushgan kundan boshlab 15 kun ichida ko'rib chiqiladi.

Loyihani amalga oshirish maqsadga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, davlat sherigi va xususiy sherik o'rta yetti kun ichida bitim tuziladi.

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida tuzilgan bitimlarning yagona reyestri Maktabgacha ta'lif vazirligi tomonidan yuritiladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lif tashkiloti tuman (shahar) maktabgacha ta'lif bo'limlariga Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan foydalangan holda berilgan xabarnomani qabul qilinganligi haqida tasdiqnomani olgan kundan boshlab ta'lif faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo'ladi. Bunda, oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lif tashkiloti xabarnomaga quyidagi hujjatlar nusxasini ilova qiladi:

davlat-xususiy sheriklik bitimi;

yong'in nazorati organlarining mavjud binolar va xonalarning yong'in xavfsizligi talablariga mosligi haqidagi xulosasi;

sanitariya-epidemiologiya nazoratining mavjud binolar va xonalarning gigiyena qoidalari, normalari va normativlariga mosligi haqidagi xulosasi;

sog'liqni saqlash organlari bilan tuzilgan shartnoma.

Quyidagi hujjatlar davlat sherigi tomonidan tegishli davlat organlari va tashkilotlardan mustaqil ravishda, shu jumladan "Elektron hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali so'rab olinadi:

guvohnoma nusxasi;

oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lif tashkilotida tarbiyaviy-ta'lif faoliyatini olib borayotgan pedagogika xodimi oliy yoki o'rta maxsus pedagogik ma'lumotiga ega ekanligini tasdiqlovchi hujjat

Bugungi kunda oldimizga qo'ygan ulkan maqsadlarimizga ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, xayotimizning taraqqiyoti va istiqbolli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, davlatning ta'lif tizimini takomillashtirishdagi roli, ahamiyati, rejalarimizning samarasini taqdiri - bularning barchasi, avvalambor, zamon talabiga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lif-tarbiya tizimini isloh qilish va zamon talablari darajasiga ko'tarish sohasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari aniq bir yoshdagi bolaning rivojlanish standartlarini va bolaning yutuqlari va rivojlanish darajasini baholash imkoniyatini beruvchi indikatorlarni belgilaydi. Ushbu xujjat, birinchi navbatda, maktabgacha ta'lif tashkilotlari va oilalarga bolaning to'laqonli rivojlanishi, ta'lif-tarbiyasida, uni maktabda ta'lif olishga samarli tayyorlashda va bolalar qamrovini yanada kengashtirishga yordam berishni nazarda tutadi. Bugungi kunda yosh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalash xamda uzoq qishloqlarda maktabgacha ta'lif tashkilotiga bolalarni qamrab olishni kengaytirish maqsadida oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lif tashkilotlarining tashkil etilishi uzluksiz ta'lif tizimining boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lif tashkilotlariga bo'lgan yana bir muhim e'tibor desak mubolag'a bo'lmaydi. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lif

tashkilotlari to'g'risidagi nizomga muvofiq, oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faqat davlat-xususiy sherikchilikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moddiy- texnik va uslubiy jihatdan ta'minlash shakli asosida qishloq joylarda tashkil etiladi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish va bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlash bola shaxsini sog'lom va yetuk, mакtabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish bolalarning intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishini ta'minlash; bolalarda xalqimizning yuksak ma'naviyati va insonparvarlik an'analariga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tuman (shahar) hokimliklari tomonidan beriladigan belgilangan tartibdagi ruxsatnomani qabul qilib olgan vaqtan boshlab ta'lim faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo'ladi va o'z faoliyatini boshlash huquqiga ega bo'ladi. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini amalga oshirish uchun hech qanday litsenziya talab etilmaydi. O'z uyidan oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining muassislari yakka tartibdagi tadbirkor hisoblanadi. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ish tartibi va bolalarning muassasada bo'lish vaqtini ota-onalarning istak va talablaridan kelib chiqqan xolda va oilaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti raxbari tomonidan belgilanadi. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti joylashgan hududda yashaydigan aholi talablaridan kelib chiqib, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida 5 yoki 6 kunlik (dushanbadan shanbagacha qadar) ish haftasini joriy etilishi ham mumkin. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga bolalarni qabul qilish jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qatiy nazar, tegishli tibbiy xulosa asosida amalga oshiriladi. Oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham Davlat talablari asosida kunlik mashg'ulotlar tashkil etiladi va bolalarning yosh xususiyatiga mos ravishda ta'lim tarbiya ishlari amalga oshiriladi. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga bolalarni qabul qilish yoki chiqarish tartibi oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti raxbarining qarori bilan amalga oshiriladi. Xulosa qilib aytganda, bola shaxsini shakllantirishda oilaviy nodavlat ta'lim tashkilotlarimizning ham o'rni beqiyos. Oilaviy nodavlat tashkiloti tarbiyachisi ham bolalar shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta'im asosida ularning aqliy, intellektual, emotsiyonal, jismoniy, va ma'naviy aspektlarini inobatga olgan xolda mukkammal bilim bilan qurollantiradilar. Bu esa barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari singari "Ilk qadam" Davlat talablari asosida bolaning beshta indikatorlarni rivojlantirishga doir bilim, ko'nikma va malakalarga va mustahkam aqliy salohiyatga ega bo'lishlariga o'z hissasini qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev SH.M. —Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarinnng ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2017 yil 27 iyuldaggi PQ-3151- sonli Qarori

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-6 ISSUE-11 (30- November)**

-
2. Mirziyoev SH.M. 2017. 30 sentyabr. — Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish haqidagi PQ-3305-sonli farmoni.(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2017 y., 07/17/3305/0038-son).
 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Mirziyoev SH.M. Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish haqidagi 2020-yil 30-yanvardagi PQ-4581-son qaror
 4. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori
Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati bo'yicha ruxsatnoma berish tartibi to'g'risida nizomlarni tasdiqlash haqida